

Muqaddaslikka yo'g'rilgan xotira

Bizning tinch, baxtiyor yashashimiz uchun hamda yurtimiz mustaqilligi uchun kurashgan va bu yo'lida jonini fido qilgan insonlarni hurmat bilan tilga olamiz. Ularning xotirasini abadiylashtirish uchun butun Respublikamizda, shu jumladan, institutimizda ham yuqori saviyadagi qutlov harakatlari amalga oshirib kelinmoqda. Hozirgi vaqtda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida, insonparvarlik, aholini har tomonlama qo'llab-quvvatlash kabi ezgu maqsadlar barq uring turganini bugungi kunimizning o'zi isbotlab turibdi.



"Elektrotexnika va mexatronika" kafedrasi mudiri R.J Baratov va kafedra dotsenti B.N Erkinovlar 9-may "Xotira va qadrlash" kuni munosabati hamda yaqinlashib kelayotgan Hayit bayrami munosabati bilan tabriklash maqsadida M.A Tojiyev xonardoniga tashrif buyurishdi.

"E va M" kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

**A. Mustafoqulov axboroti
TIQXMMI matbuot xizmati**